

YALPIZ(MENTHA) O'SIMLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATI VA AHAMIYATI

Abdullayev Salmonbek Murodali o`g`li

Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Kamolova Marjona Rustam qizi

Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Zayniddinova Fayyoza Shamsiddin qizi

Termiz davlat universiteti tabiiy fanlar fakulteti talabasi

Anotatsiya: Yalpiz Labguldoshlar oilasiga mansub ko`p yillik,dorivor va efir moyli o'simlik.O'zbekistonda 45 ta turi o'sadi , poyasi tik shoxlangan, bo`yi 25-100 sm .Barglarida 2,5-3 %, gullarida 4-6 %, poyasida 0,3 % mentol (validolning tarkibiy qismi) ga boy bo`lgan efir moyi, shuningdek, flavonoidlar, vitaminlar,oshlovchi moddalar bor. Barglari va poyasidan yalpiz moyi olinadi hamda oziq-ovqat , tibbiyat, parfyumeriya sohalarida foydalaniлади. Vegetativ (bahorda ildizini bo`lib ekish) yo`li bilan ko`paytiriladi. O'zbekistondagi barcha viloyatlarda uchraydi hamda nam yerlarda, ariq va daryo bo`ylarda o'sadi.Ilimiy tibbiyotda turli ichak kasalliklarida, gipertoniya, nevroz, uyqusizlik, oshqozon-ichak kasalliklarida foydalaniлади.Yalpiz shuningdek oddiy yalpiz, bog` yalpizi, qo`zichoq yalpiz turlari bor.Mo'tadil iqlim mintaqalarida o'sishga moslashgan.Shuningdek afrika,Shimoliy Amerika va Janubiy Amerikada tabiiy lashtirilgan.Yevropa mamlakatlari, AQSH, Ukraina, Belarus va Shimoliy Kavkazda hamda Xitoy,Hindiston, Braziliya va boshqa mamlakatlarda ekiladi.

Kalit	so'zlar:	Yalpiz(Mentha),mentol,	efir
moyi,flavonoidlar,Xitoy,Hindiston,Belarus,Braziliya,Shimoliy		va	Janubiy
Amerika,AQSH,Shimoliy	Kavkaz,oshlovchi		moddalar,organik
kislatalar,glukoza,karotin,rutin.Yalpiz (Mentha)			

Labguldoshlar oilasiga mansub ko`p yillik,dorivor va efir moyli o'simlik.O'zbekistonda 45 turi o'sadi,poyasi shoxlangan, bo`yi 25-100 sm.Barglari qarama qarshi joylashgan. Yorug'sever,namsevar o'simlik.Poyasi tik shoxlangan. Barglari rombsimon,nashtarsimon yoki tuxumsimon,gullari chala soyabonsimon to'pgulga yig'ilgan,binafsha rang.May-oktabr oylarida gullaydi.Tibbiyotda bargidan tayyorlangan tindirma (nastoyka) va damlamasidan o't haydovchi vosita sifatida foydalaniлади.Yalpiz(Mentha) tarkibida efir moylari,falvonoidlar,karotin,organik kislatalar,glukoza rutin,S darmondorisi yana bir qancha foydali moddalarga boy.Ibn Sino yalpiz bilan ichak kasalliklarini davolagan.U yalpizni ovqat hazm bo`lishini yaxshilovchi,gijja haydovchi, qon to'xtatuvchi vosita sifatida tavsiya etган.

Yalpizning ko`pgina turlari shomollashni oldini olish,balg'am ko`chiruvchi,tinchlaniruvchi vosita sifatida foydalaniлади.Yalpiz bosh og'rig'i va ko'ngil aynishini qoldiruvchi vositadir.Buning uchun yalpiz barglarini peshona va burun atrofiga

surtish kerak.Yalpiz shomollash, yuqumli kasalliklarda, yallig'lanishga qarshi,teri va sochni parvarish etishda, qarishga qarshi prodsuduralar va dam olish uchun ishlatiladi.

O'SISH JOYI VA TARQALISHI:

U ko'proq nam yerlarda xususan ariq va daryo bo'ylarida o'sishga moslashgan.O'zbekistondagi barcha viloyatlarda o'sadi.U yorug'sev var va namsevar o'simlik hisoblanadi.Yevropadagi bir qancha davlatlarda ham o'sadi.Bundan tashqari uni o'rmon chetlarida ham uchratish mumkin.Afrika,Shimoliy va Janubiy Amerikada tabiiy lashtirilgan hisoblanadi.Keng bargli o'rmonlar,archa o'rmonlar hamda yirik va baland bo'yli o'simliklar orasida ham o'sishga moslashgan.

XOM ASHYONI YIG'ISH VA UNING SIFATI:

Qayta ishslash jarayonida yangi o'simlik materiallaridan kristalli mentol olinadi.U kosmetika ishlab chiqarishda foydalaniladi.Gigiena vositalari – tish pastalari,tetiklantiruvchi losonlar, kepek uchun shampunlar,soqoldan keyin balzamlar olishda foydalaniladi.Har yili Voronej viloyatida sanoat ehtiyojlari uchun va Krasnodar o'lkasi xushbo'y o'simliklarning ulkan plantatsiyalari ekilgan.Janubiy hududlarda iyun boshidan iyul oxirigacha davom etgan gullah davrida kasalliklar davolash uchun mentol yalpiz yig'ib olinishi kerak.

KIMYOVIY TARKIBI:

Mentol,oshlovchi moddalar,organik kislatalar,glukoza,karotin,rutin,efir moyi,flavonoidlar,vitaminlar.

TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI:

Tibbiyotda yalpiz barglaridan asabni tinchlantirishda bir qator dori vositalari tayyorlanadi.Xalq tabobatida yalpizli qaynatma istisqo,qo'tir,bod,sariq,shirincha,shamollash,yo'tal va boshqa kasalliklarni davolashda yaxshi foyda berishi aniqlangan.Ko'k qismi qorin og'rig'ini qoldirishda foydalaniladi.Tibbiyot- da antispazmodik, tinchlantiruvchi va antisепtik sifatida foydalaniladi.Mentol yalpizning biologik faol moddalari asosida,farmakologik preparatlar angina pektorisini,nevrozni,nazofarenkning yallig'lanish ka-salliklarini davolash uchun foydalaniladi.O'simlikdan tayyorlangan kompresslar yumshoq,antikulyar va yallig'lanish jarayonlarini to'xtatishga yordam beradi. Terapiyaning ushbu usuli mushak-skelet tizimining burulishlari,allergik toshmalar,quyosh yonishi tashxisi qo'yilgan bemorlarga buyuriladi.Ertalab ichilgan bir piyola yalpiz choyi insonni tetiklantiradi.Yalpiz tarkibidagi mentol arterial qon bosimini tushiradi.Yalpiz ko'krakni yumshatib balg'amni ko'chiradi.

Xulosa o'rnila shuni aytish mumkinki Yalpiz (Mentha) Labguldoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik turkumi.O'zbekistonda bu turkumning 45 turi o'sadi.Dengiz sathidan optimum 1200-1800 m balandlikda joylashgan,yirik o'tlar qoplamida o'sishga moslashgan.U yorug'sev var hamda namsevar o'simliklardir.U dorivor va efir moylariga boy bo'lgani uchun oziq-ovqat,kosmetika va tibbiyotda foydalaniladi.Ko'pchilik turlari madaniylashtirilgan.O'zbekistondagi deyarli barcha viloyatlarda,sernam joylarda,ariq atrofida,daryo bo'ylarida,o'rmon chetlarida o'sishga moslashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zMe birinchi jild,Toshkent 2000 yil.
- 2.Alimbaeva P.K Goncharova A.V Qizg'izistonning dorivor o'simliklari 1971-yil , 98-bet
- 3.Ayupov R.H Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish 2015-yil 82-bet
- 4.Tolipov Y Botanika malumotga oid adabiyot 2011-yil 26-bet
- 5.www.ipni.com(International plants Name Index).
- 6..www.powo.com(Plants of the World Online)